

TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN ONLAYN QIMOR O‘YINLARINING O‘SIB KELAYOTGAN YIGIT VA QIZLARNING TA‘LIM Olishiga SALBIY TA‘SIRI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-238-241>

Shobduraximova Umriniso Toxirovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi, PhD

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tavakkalchilikka asoslangan onlayn qimor o‘yinlarining o‘sib kelayotgan yoshlarning kamol topishida ta‘lim olishiga va ruxiy kognitiv bilish jarayonlarini rivojlanishiga salbiy ta‘sir etish jarayonlari bayyon etilgan.

Kalit so‘zlar: onlayn qimor, firibgarlik, kognitiv bilish jarayonlari, tavakkalchilik, oilaviy nizolar, milliy urf-odatlar, javobgarlik, moliyaviy qaramlik, qimor o‘yinlar, giyohvandlik, tashvish, depressiya, qo‘zg‘alish, zavqlanish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается негативное влияние рискованных онлайн-азартных игр на развитие когнитивных процессов и обучения у молодых людей.

Ключевые слова: азартные игры в интернете, мошенничество, когнитивные процессы, рискованное поведение, семейные конфликты, национальные традиции, ответственность, финансовая зависимость, азартные игры, пристрастие, тревога, депрессия, возбуждение, удовольствие.

ABSTRACT

This article describes the negative impact of risky online gambling on the development of cognitive processes and learning in young people.

Key words: online gambling, fraud, cognitive processes, risk-taking, family conflicts, national traditions, responsibility, financial dependence, gambling, addiction, anxiety, depression, arousal, pleasure.

Bugungi kunda gallabalshuv jarayonining ta‘sirida onlayn qimor o‘yinlari ayrim toifadagi insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday o‘yinlar natijasida nafaqat moliyaviy ta‘sirga, balki qaramlikni keltirib chiqaruvchi hissiy ta‘sirga ham tushib qolish holatlari ko‘p uchramoqda. Milliy urf-odatlarimiz va mentalitetimizga, shuningdek, diniy qarashlarimizga yot bo‘lgan qimor o‘yinlarini noqonuniy ravishda tashkil etish holatlari, ayniqsa, onlayn tarzda ommalashib, o‘smir va yoshlarni o‘z domiga tortayotgani achinarli holatlardan biridir.

Hattoki, bunday o‘yinlarda ko‘p miqdoridagi pulni yutqazib qo‘yib, oxir-oqibat o‘z joniga qasd qilish yoki yutqazib qo‘ygan pulni to‘lash uchun jinoyat sodir qilish holatlari ham yuz bermoqda. Ma‘lumot uchun, ushbu o‘yinlar, ayniqsa, “onlayn” qimor bilan bog‘liq jinoyatlar 2019 yilda 55 ta, 2020 yilda 86 ta, 2021 yilda 103 ta, 2022 yilning 6 oyida 90 tani tashkil etgan. Mutaxassislar fikricha, bunday o‘yinlar insonda qaramlikni vujudga keltirib, katta miqdordagi pul mablag‘lari sarflashiga va ayrim fuqarolarning o‘z joniga qasd qilish, firibgarlik,

budjet mablag‘larni talon-toraj qilish kabi harakatlar sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog‘i provayderlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish, tegishli dasturiy ta‘minotdan nusxa ko‘paytirish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi”[1]. Bu borada xorij tajribasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Germaniyada qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar bilan bog‘liq jinoyatlar Jinoyat kodeksining “G‘arazli jinoyatlar” bo‘limidan joy olgan hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda ishtirok etgan shaxs uchun belgilangan jazo esa 6 oygacha etib belgilangan.

Fransiyada qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari 1983-yilda qabul qilingan “Qimor o‘yinlari to‘g‘risida”gi qonunda bayon etilgan. O‘tgan vaqt davomida mazkur qonunga bir necha bor o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Qonunning 1-moddasiga binoan, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini buzish, ya‘ni mazkur faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish yoki litsenziya talablariga rioya etmaslik 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish hamda 90 ming yevrogacha jarima qo‘llash bilan jazolanadi. Agar qilmish bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, jazo 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 200 ming yevrogacha jarima solishgacha og‘irlashadi.

Buyuk Britaniyada qimor o‘yinlarini tartibga solish maqsadida 2005-yilda “Gambling Act 2005” nomli normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Mazkur hujjatda kazinolardagi o‘yin biznesini, o‘yin avtomatlaridan foydalanishda, lototereyalar tashkil etishda, shuningdek, bukmekerlik idoralarining faoliyatida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan nazorat qiluvchi moddalar nazarda tutilgan. Shuningdek, ushbu hujjat o‘yinga oid faoliyat bilan shug‘ullanish uchun litsenziya berish tartibini va mazkur turdagi faoliyatni nazorat qiluvchi organ – Gambling komissiyasi (Gambling Commission)ning vakolatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, “Gambling Act 2005”da voyaga yetmagan shaxslarni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarga jalb etish masalasiga alohida to‘xtalgan. Voyaga yetmagan shaxslarga qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni har qanday shaklda reklama qilganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. Qonunning 46-moddasida voyaga yetmagan shaxslarga qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar haqida ma‘umotlar berish va ularda bu kabi o‘yinlarga qiziqish uyg‘otish jinoyat tarkibini keltirib chiqarishi belgilangan. Shuningdek, qonunning 47-moddasida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar tashkil etiladigan hududlarga voyaga yetmagan shaxslarning kirishiga imkon bergan shaxslarning javobgarligi belgilab qo‘yilgan.

AQSHning Federal miqyosdagi va 50 ta shtat miqyosidagi Jinoyat kodekslari, shuningdek, Kolumbiya Federal okrugining jinoyat kodeksi asosida qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish hamda o'tkazish jinoyatlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Xususan, AQSH qonunlari (United states Code)ning "Gambling" ("Qimor o'yinlari") deb nomlangan bobida qonunga xilof ravishda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etganlik uchun javobgarlik masalalari yoritilgan[2].

Afsuski, qimor o'yinlarining o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim olishi va kamol topishida kongnitiv bilish jarayonlarini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarning shaxsiy hayotiga va foyda maqomga zarar yetkazmoqda. Bugungi kunda yoshlar qimorga haddan tashqari qaram bo'lib qolmoqda, bu esa ta'lim olishlariga va jamoaviy munosabatlariga sa'lbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qimor o'yinlarining jamiyatga eng muhim ta'siridan biri ularning ijtimoiy o'zaro ta'siridir. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, haddan tashqari o'yin shaxsiy ijtimoiy o'zaro ta'sirning pasayishiga va ijtimoiy ko'nikmalarning pasayishiga olib kelishi mumkin[3]. Bundan tashqari, qimor o'yinlari jamoalarida onlayn keng tarqalgan bo'lib, ularning ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir etmoqda. Qimor o'yinlari o'yinchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga ham ta'sir qiladi. Ba'zi hollarda ular ijtimoiy ko'nikmalar va muloqot qobiliyatlarini pasayishi ko'rsatilgan, chunki qimor o'yin dunyosiga kirib ketishi ularni obyektiv olamdan uzilishiga va emotsional xolatlarini buzilishiga olib kelmoqda. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, haddan tashqari o'yin giyohvandlik va ruhiy tushkunlik va tashvish kabi boshqa ruhiy muammolarga olib kelishi mumkin[6]. Bir qancha olimlar, qimor o'yinini o'yinchi shaxslar stress va boshqa salbiy his-tuyg'ularni yengishda qochish shaklini tanlashlarini mumkinligini ta'kidlaydi[7]. Biroq, qimor o'yinning ruhiy salomatlikka salbiy ta'siri ota-onalar, pedagoglar va ruhiy salomatlik mutaxassislarini tashvishga solmoqda. Qimor o'yinlar ham shaxsga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qimor o'yinlarni o'ynash qo'zg'alish, qo'zg'alish va zavqlanish darajasini oshirishi mumkin[8]. Bundan tashqari, ba'zi o'yinchilar kayfiyat va farovonlikning yaxshilanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan suvga cho'mish va oqim tuyg'usini boshdan kechirishlari haqida xabar berishadi. Biroq, qimor o'yinlar giyohvandlik, tashvish va depressiya kabi salbiy psixologik ta'sirlar bilan ham bog'liq.

Onlayn qimor o'yinlarining xavflari

Onlayn qimor o'yinlari bilan bog'liq xatarlar ham mavjud. Bu o'yinlar shiddatli bo'lishi mumkin va o'yinchilarni qimor o'yinlariga qo'l urishga undashi mumkin. Aqldan ozish; mablag' yo'qotish va h.k. kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. O'yin jarayonida mumkin bo'lgan noxush holatlar haqida ogoh bo'lish zarur.

Shuningdek, xavfsizlik masalalari ham muhimdir. Onlayn qimor o'yinlari bilan shug'ullanganda, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari va moliyaviy o'zgarishlari o'zgarishi mumkin. Shu sababli, o'yinchilar har doim ishonchli va sertifikatlangan platformalarda o'ynashlari zarur. Masalan, line bet platformasi

foydalanuvchilarning maxfiyligini saqlashga va xavfsiz o'yin muhitini taqdim etishga alohida e'tibor beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlariga o'sib kelayotgan yoshlarning tobe bo'lib qolishi nafaqat ruhiy va ta'lim olishlariga ham salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shuningdek, moliyaviy qaramlikka duchor etib, oilaviy nizolarga ham sabab bo'ladi. Shuningdek, ushbu faoliyat naqd pullarning bankdan tashqari muomalasi ko'payishiga, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlanishiga yo'l ochadi hamda shu orqali mamlakatimizning iqtisodiy ravnaqiga putur yetkazadi. Shunga ko'ra, fuqarolarning ogohliligini oshirish, davlatning bu boradagi nazoratini kuchaytirish hamda ota-onalar tomonidan o'z farzandlarining bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishi ustidan muntazam nazorat olib borilishi yuqoridagi kabi salbiy illatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Griffiths, Internet Qimor o'yinlari: muammolar, tashvishlar va tavsiyalar. 2003. Kiberpsixologiya va xulq-atvor, 6 (6), p. 557-568.
2. Parker, J. D. A., Teylor, R. N., Eastabrook, J. M., Schell, S. L. & Vud, L. M. O'smirlik davrida qimor o'yinlari muammosi: Internetni suiistemol qilish, qimor o'yinlari va hissiy intellekt bilan bog'liqlik. 2008. Shaxsiyat va individual farqlar, 45 (2), 174-180-betlar.
3. Zendle, D. va Cairns, P. Video o'yin talon qutilari muammoli qimor bilan bog'liq: keng miqyosli so'rov natijalari. 2019. PLOS ON, 14(3), 194-bet.
4. Xardun K.K. va Qishloq J.L. O'smirlarda kognitiv buzilishlar va muammoli qimor o'yinlari. 2001. Qimor tadqiqotlari jurnali, 17 (2), p. 101-120.
5. Уордл, Х. Один и тот же или другой? Конвергенция азартных игр и других азартных игр среди детей. 2019. Журнал исследований азартных игр, 35 (4), стр. 1109–1125.
6. Роклофф М. Дж. и Грир Н. Влияние аудитории на азартные игры на внеочередных собраниях: защитный эффект от того, что другие наблюдают за вашей игрой. 2011. Журнал исследований азартных игр, 27(3), с. 443-451.
7. Ланцет общественного здравоохранения. Азартные игры и общественное здравоохранение: нам нужны политические действия для предотвращения вреда. 2017 год. The Lancet Public Health, 2(10), с. 451.
8. Кинг Д.Л., Дельфаббро П.Х., Капцис Д. и Цваанс Т. Подростки симулируют азартные игры через цифровые и социальные сети: новая проблема. 20140 год. Компьютеры в поведении человека, 31, с. 305-313.